INTERNET FIRIBGARLIGI JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA JABRLANUVCHINI SO‘ROQ QILISHNING KRIMINALISTIK JIHATLARI

Xabibiddinov Nodirjon Mo‘sinjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
0009-0009-5402-2364
n.xabibiddinov@tsul.uz

Annotatsiya. *Tezisda internet firibgarligiga oid jinoyat ishlarini tergov qilishda jabrlanuvchini so‘roq qilishning kriminalistik xususiyatlari tahlil qilingan. Jabrlanuvchi ko‘pincha jinoyatchi bilan bevosita muloqotda bo‘lgan yagona shaxs ekani, uning ko‘rsatuvlari esa raqamli izlarni aniqlash va mablag‘larni tezkor to‘xtatib qolish uchun boshlang‘ich axborot manbai bo‘lishi asoslab berilgan. Ijtimoiy muhandislik ta’siridagi xotira xususiyatlari, uyalish hissi va vaqt omili so‘roq natijadorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan. So‘roqqa tayyorgarlik, uning predmeti, erkin hikoya va kognitiv intervyu usullari, so‘roqni elektron ma’lumotlar bilan ishlash bilan uyg‘unlashtirish masalalari ko‘rib chiqilib, tergov amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *internet firibgarligi, jabrlanuvchi, so‘roq taktikasi, ijtimoiy muhandislik, kognitiv intervyu, raqamli izlar, elektron ma’lumotlar, kriminalistika.*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются криминалистические аспекты допроса потерпевшего при расследовании интернет-мошенничества. Обосновывается, что потерпевший нередко является единственным лицом, непосредственно взаимодействовавшим с преступником, а его показания служат исходным источником сведений для обнаружения цифровых следов и оперативной блокировки похищенных средств. В качестве ключевых факторов, влияющих на результативность допроса, выделены особенности памяти под воздействием социальной инженерии, чувство стыда и фактор времени. Рассмотрены подготовка к допросу, его предмет, приёмы свободного рассказа и когнитивного интервью, сочетание допроса с работой с электронной информацией; сформулированы предложения по совершенствованию следственной практики.*

Ключевые слова: *интернет-мошенничество, потерпевший, тактика допроса, социальная инженерия, когнитивное интервью, цифровые следы, электронная информация, криминалистика.*

Abstract. *The thesis examines the forensic aspects of interviewing the victim in internet fraud investigations. It argues that the victim is often the only person who has interacted directly with the offender, and that the victim's testimony is the initial source of information for locating digital traces and promptly freezing stolen funds. Memory distortions caused by social engineering, feelings of shame, and the time factor are identified as the main factors affecting the outcome of the interview. The paper considers preparation for the interview, its subject matter, free narrative and cognitive interview techniques, and the combination of the interview with work on electronic data, and formulates proposals for improving investigative practice.*

Keywords: *internet fraud, victim, interview tactics, social engineering, cognitive interview, digital traces, electronic data, criminalistics.*

Internet firibgarligini tergov qilish haqida so‘z borganda, e’tibor ko‘pincha texnik masalalarga – IP-manzillarni aniqlash, bank tranzaksiyalarini kuzatish, kompyuter-texnik ekspertizasiga qaratiladi. Holbuki bu zanjirning birinchi halqasi deyarli har doim jabrlanuvchidir. Aynan u firibgar bilan yozishgan, uning ovozini eshitgan, qaysi havolani ochgani, qaysi kodni aytgani va pulni qaysi kartaga o‘tkazganini biladi. Shu ma’noda jabrlanuvchining birinchi so‘rog‘i raqamli izlarni qidirishning “yo‘l xaritasi” vazifasini bajaradi. Undan olingan har bir aniq ma’lumot keyingi tergov harakati yoki so‘rovga aylanadi.

Jabrlanuvchining protsessual maqomi va huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 54 va 55-moddalarida, uni so‘roq qilish tartibi esa 10-bobdagi so‘roq qilishning umumiy qoidalari hamda 12-bobda (114–121-moddalar) belgilangan [1]. Biroq qonun so‘roqning umumiy tartibini belgilaydi, internet firibgarligi esa shu tartib doirasida alohida taktik yondashuvni talab qiladi. Buning sababi jabrlanuvchining bunday ishlardagi o‘ziga xos holati bilan bog‘liq.

Birinchidan, internet firibgarligida jabrlanuvchi jinoyatchini ko‘pincha umuman ko‘rmaydi. An’anaviy firibgarlikda jabrlanuvchidan shaxsning tashqi qiyofasi, kiyimi, yurish-turishi so‘ralsa, bu yerda “jinoyatchi qiyofasi” telefon raqami, akkaunt nomi va avatari, yozishma uslubi, yuborilgan havola, karta yoki kriptohamyon raqami, ovoz va nutq xususiyatlaridan iborat bo‘ladi. Demak, so‘roqning bosh vazifasi aynan shu identifikatorlarni to‘liq va aniq qayd etishdan iborat. Bayonnomaga “noma’lum shaxs telefon orqali aldab, pulni o‘tkazib oldi” kabi umumiy jumla yozilsa, bu ma’lumotlarni keyinchalik tiklash ancha qiyinlashadi.

Ikkinchidan, jabrlanuvchi jinoyat sodir etilayotgan paytda ijtimoiy muhandislik ta’sirida bo‘lgan. Firibgar shoshiltirish, qo‘rqitish (“kartangiz bloklanmoqda”,

“yaqiningiz muammoga uchradi”) yoki, aksincha, katta foyda va’da qilish orqali uning tanqidiy fikrlashini susaytiradi. Stress holatida idrok etilgan voqealar xotirada parcha-parcha saqlanadi, shu sababli jabrlanuvchi voqealar ketma-ketligini adashtirishi, suhbat mazmunini qisqartirib yoki, aksincha, keyinroq eshitgan gaplar bilan to‘ldirib aytib berishi mumkin. Bu esa uning ishora qiluvchi savollarga nisbatan ta’sirchanligini oshiradi.

Uchinchidan, jabrlanuvchilarning katta qismi kodni o‘z qo‘li bilan yuborgani, “investitsiya”ga o‘zi pul kiritgani yoki ijtimoiy tarmoqdagi tanishiga ishongani uchun o‘zini aybdor his qiladi. K.Kross tadqiqotida onlayn firibgarlik qurbonlari jamiyatda “ochko‘z va laqma” sifatida tasvirlanishi, bunday munosabat esa ularni boshidan kechirganlarini oshkor qilishdan tiyib turishi ko‘rsatilgan [2]. Avstraliya kriminologiya institutining tadqiqotida esa jabrlanuvchilar murojaat qilganda duch kelgan befarq yoki ayblovchi munosabat ularning ahvolini yanada og‘irlashtirgani, ular, eng avvalo, hurmat bilan tinglanishni kutgani qayd etilgan [3]. Uyalish hissi tufayli jabrlanuvchi so‘roqda SMS-kodni aytganini yoki masofaviy boshqaruv ilovasini o‘rnatganini yashirishi mumkin, holbuki aynan shu ma’lumot jinoyat mexanizmini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, vaqt omili. Firibgarga yozishmalarni “ikki tomondan” o‘chirish, akkauntni yo‘q qilish, mablag‘ni bir necha karta yoki kriptohamyon orqali o‘tkazib yuborish uchun odatda bir necha soat yetarli. Jabrlanuvchi esa huquqni muhofaza qiluvchi organga ko‘pincha kech murojaat qiladi. U avval bankka, keyin tanishlariga uchraydi, ba’zan esa masalani “o‘zi hal qilishga” urinadi. Shu bois birinchi so‘roqni kechiktirmaslik va uni raqamli ma’lumotlarni qayd etish bilan bir vaqtda o‘tkazish zarur.

So‘roqqa tayyorgarlik tergovchidan firibgarlikning tipik sxemalarini bilishni talab qiladi. “Bank xavfsizlik xizmati” nomidan qilingan qo‘ng‘iroq, onlayn savdo platformasida “xaridor” yuborgan soxta to‘lov havolasi, soxta birja yoki treyding platformasi, ijtimoiy tarmoqdagi tanishuv orqali sodir etiladigan firibgarlik – har birining o‘z mexanizmi va, demak, o‘z savollar majmui bor. Tayyorgarlik bosqichida jabrlanuvchidan telefoni yoki boshqa qurilmasi, bank ko‘chirmasi, cheklar va ekran yozuvlarini olib kelish so‘ralishi, zarurat bo‘lsa, JPKning 69-moddasiga muvofiq mutaxassisni jalb etish masalasi hal qilinishi lozim.

So‘roqning boshlang‘ich bosqichida psixologik aloqa o‘rnatish alohida ahamiyatga ega. So‘roq taktikasiga oid an’anaviy ishlarda ta’kidlanganidek, so‘roq qilinuvchining ishonchini qozonmay turib, undan to‘liq va xolis ko‘rsatuv olish qiyin [4]. Jabrlanuvchiga javobgarlik firibgarning zimmasida ekanini, bunday usullar bilan ko‘plab odamlar, jumladan, tajribali mutaxassislar ham aldanayotganini tushuntirish uning ochiqroq gapirishiga yordam beradi. Shundan

so‘ng JPKning 101-moddasiga muvofiq jabrlanuvchiga ishning holatlari to‘g‘risida erkin so‘zlab berish imkoniyati beriladi. Bu bosqichda uning so‘zini bo‘lmaslik muhim, aniqlashtiruvchi savollar esa erkin hikoyadan keyin beriladi. JPKning 102-moddasida mustahkamlangan ishora qiluvchi savollar berishga yo‘l qo‘yilmasligi qoidasi bu toifadagi ishlarda ayniqsa dolzarb. “U sizga bank xodimi deb tanishtirdimi?” degan savol stress holatidagi jabrlanuvchiga tayyor javobni taklif qiladi, “U o‘zini kim deb tanishtirdi?” degan savol esa uning o‘z xotirasiga tayanishini ta’minlaydi.

Xotirani faollashtirishda kognitiv intervyu usullari samarali vosita bo‘lishi mumkin. R.Fisher va E.Gayzelman tomonidan ishlab chiqilgan bu metodika voqea sodir bo‘lgan muhitni xayolan tiklash, hamma narsani, hatto ahamiyatsiz tuyulgan tafsilotlarni ham aytib berish, voqeani turli tartibda va turli nuqtayi nazardan eslashga asoslanadi [5]. Masalan, jabrlanuvchidan qo‘ng‘iroq kelgan paytda qayerda bo‘lgani, qaysi qurilmadan foydalangani, ekranda nimani ko‘rgani, orqa fonda qanday tovushlar eshitilganini eslashni so‘rash ko‘pincha yangi ma’lumotlarni yuzaga chiqaradi. Bu usulga oid yigirma besh yillik tadqiqotlarning meta-tahlili kognitiv intervyu to‘g‘ri tafsilotlar hajmini sezilarli oshirishini, xatolar soni esa nisbatan kam ortishini ko‘rsatgan [6].

So‘roq predmeti internet firibgarligining kriminalistik tavsifidan kelib chiqadi. Jabrlanuvchidan, avvalo, firibgar bilan birinchi aloqa qachon, qaysi kanal orqali (qo‘ng‘iroq, SMS, messenjer, ijtimoiy tarmoq, e’lonlar sayti) va qaysi identifikator orqali o‘rnatilgani aniqlanadi. So‘ngra firibgar qanday “afsona”dan foydalangani, o‘zini kim deb tanishtirgani, muloqot qancha davom etgani, jabrlanuvchi aynan qanday harakatlarni bajargani – qaysi havolani ochgani, qanday ilova o‘rnatgani (ayniqsa, masofaviy boshqaruv ilovalari), qaysi kod yoki parolni bergani so‘raladi. Moliyaviy qismda mablag‘ qaysi karta yoki hisobvaraqdan, qaysi bank yoki to‘lov ilovasi orqali, qaysi rekvizitlarga, qachon va qancha miqdorda o‘tkazilgani bayonnomada ayniqsa batafsil qayd etilishi kerak, chunki aynan shu ma’lumotlar mablag‘larni to‘xtatib turish uchun bankka yuboriladigan so‘rovning asosini tashkil etadi. Agar muloqot ovozli bo‘lgan bo‘lsa, firibgarning ovozi, talaffuzi, shevasi, nutq sur’ati, takrorlagan iboralari va orqa fondagi shovqinlar ham so‘raladi. JPKning 126-moddasiga ko‘ra, tanib olish uchun ko‘rsatishdan oldin tanib oluvchi so‘roq qilinadi, shu sababli bu belgilarning birinchi so‘roqdayoq batafsil qayd etilishi keyinchalik tanib olish uchun ko‘rsatish yoki fonoskopik ekspertiza o‘tkazish imkoniyatini saqlab qoladi.

Internet firibgarligi bo‘yicha so‘roqning muhim xususiyati – uni elektron ma’lumotlar bilan ishlash bilan uyg‘unlashtirish zarurati. JPKning 105-moddasi so‘roq qilinuvchiga narsalar va hujjatlar bilan bir qatorda elektron ma’lumotlarni

koʻrsatish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu jabrlanuvchiga yozishmalar, qoʻngʻiroqlar roʻyxati, bank ilovasidagi operatsiyalarni koʻrsatib, ularning har biriga izoh berishini soʻrash, qaysi xabar firibgardan kelganini, qaysi operatsiyani oʻzi, qaysi birini esa firibgar bajarganini aniqlashtirish imkonini beradi. Amalda eng maqbul yoʻl jabrlanuvchining roziligi bilan uning qurilmasini mutaxassis ishtirokida koʻzdan kechirish va soʻroqni shu harakat bilan uygʻun holda olib borishdir. Bunda yozishmalar, qoʻngʻiroqlar jurnali, oʻrnatilgan ilovalar va bank bildirishnomalari qayd etiladi. Soʻroq jarayonini audio- va videoyozuv vositasida qayd etish (JPKning 91 va 106-moddalari) jabrlanuvchining soʻzlarini aynan saqlab qolish, uning holatini aks ettirish va takroriy soʻroqlarga ehtiyojni kamaytirish uchun foydalidir.

Internet firibgarligining hududlararo va transchegaraviy tabiati tufayli jabrlanuvchi koʻpincha boshqa viloyatda yoki xorijda boʻladi. Bunday hollarda JPKning 91^1–91^4-moddalarida nazarda tutilgan videokonferensaloqa rejimida soʻroq qilish vaqtni tejaydi va jabrlanuvchini ortiqcha safardan xalos qiladi. Keksa, kasal yoki uzoq muddatga xorijga ketayotgan jabrlanuvchilarga nisbatan JPKning 12^1-bobida nazarda tutilgan koʻrsatuvlarni oldindan mustahkamlab qoʻyish institutidan foydalanish maqsadga muvofiq. Voyaga yetmagan jabrlanuvchilar esa JPKning 121-moddasida belgilangan qoʻshimcha kafolatlarga rioya qilingan holda soʻroq qilinadi. Bunday yondashuv Yevropa Ittifoqining 2012/29/EU-son Direktivasi 20-moddasidagi jabrlanuvchini asossiz kechiktirmasdan soʻroq qilish va soʻroqlar sonini zarur minimumga keltirish talabi bilan ham hamohangdir [7]. Shu bilan birga, bank, aloqa operatori yoki platformadan javob olingach, odatda JPKning 108-moddasi asosida qoʻshimcha soʻroq oʻtkaziladi. Unda jabrlanuvchiga aniqlangan raqamlar, akkauntlar yoki ovoz yozuvlari koʻrsatilib, ularning firibgar bilan bogʻliqligi aniqlashtiriladi.

Tergov amaliyotida jabrlanuvchini soʻroq qilish bilan bogʻliq bir qator tipik kamchiliklarga duch kelish mumkin. Ayrim hollarda bayonnoma identifikatorlar va toʻlov rekvizitlarisiz, umumiy shaklda rasmiylashtiriladi, jabrlanuvchining qurilmasi esa koʻzdan kechirilmay, yozishmalar faqat uning ogʻzaki bayoni asosida qayd etiladi. Birinchi soʻroqning kechikishi, bank bilan aloqaning sust oʻrnatilishi va jabrlanuvchiga nisbatan ayblovchi ohang ham uchrab turadi. Bu kamchiliklar dalillar bazasini zaiflashtiribgina qolmay, mablagʻlarni qaytarish imkoniyatini ham yoʻqqa chiqaradi. Shularni inobatga olib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, internet firibgarligining tipik sxemalari (soxta havola, “bank xodimi” nomidan qoʻngʻiroq, onlayn savdo, soxta investitsiya, tanishuv orqali firibgarlik) boʻyicha jabrlanuvchini soʻroq qilishning namunaviy savollar roʻyxatini ishlab chiqish va uni tergovchilar uchun uslubiy tavsiya sifatida joriy etish lozim.

Bunday savolnoma identifikatorlar, to‘lov rekvizitlari va vaqt ko‘rsatkichlarining tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Ikkinchidan, jabrlanuvchini birinchi marta so‘roq qilishni uning qurilmasini mutaxassis ishtirokida ko‘zdan kechirish hamda bankka mablag‘larni to‘xtatib turish to‘g‘risida so‘rov yuborish bilan bir vaqtda o‘tkazishni ushbu toifadagi ishlar bo‘yicha namunaviy tartib sifatida belgilash, birinchi so‘roqni audio- va videoyozuv vositasida qayd etish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, uzoqda yashovchi jabrlanuvchilarni so‘roq qilishda videokonferensaloqadan, keksa va xorijga ketayotgan shaxslarga nisbatan esa ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutidan faolroq foydalanish zarur.

To‘rtinchidan, tergovchilarning malakasini oshirish dasturlariga ijtimoiy muhandislik psixologiyasi, kognitiv intervyu va jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan so‘roq usullari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kiritish lozim.

Xulosa qilib aytganda, internet firibgarligi bo‘yicha jabrlanuvchini so‘roq qilish oddiy protsessual rasmiyatchilik emas, balki tergovning yo‘nalishini belgilab beruvchi hal qiluvchi harakatdir. Undan olingan aniq identifikatorlar, to‘lov rekvizitlari va vaqt ko‘rsatkichlari raqamli izlarni topish va mablag‘larni qaytarishning eng qisqa yo‘lini ochadi. So‘roqni tezkor, psixologik jihatdan to‘g‘ri va elektron ma’lumotlar bilan uyg‘un holda tashkil etish esa ushbu toifadagi jinoyatlarning fosh etilish darajasini oshirishga, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (03/26/1151/0589-son; 23.06.2026-y., 03/26/1155/0616-son; 27.07.2026-y., 03/26/1161/0787-son; 14.08.2026-y., 03/26/1165/0841-son; 12.09.2026-y., 03/26/1174/0920-son) 22.09.1994). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-111460

2. Cross C. No laughing matter: Blaming the victim of online fraud. International Review of Victimology. – 2015. – Vol. 21, № 2. – P. 187–204. – DOI: 10.1177/0269758015571471

3. Cross C., Richards K., Smith R.G. The reporting experiences and support needs of victims of online fraud. Trends & Issues in Crime and Criminal Justice. – Canberra: Australian Institute of Criminology, 2016. – № 518. – URL: https://www.aic.gov.au/publications/tandi/tandi518

4. Порубов Н.И. Тактика допроса на предварительном следствии: учебное пособие. – М.: БЕК, 1998. – 208 с.

5. Fisher R.P., Geiselman R.E. Memory-enhancing techniques for investigative interviewing: The cognitive interview. – Springfield, IL: Charles C. Thomas, 1992.

6. Memon A., Meissner C.A., Fraser J. The Cognitive Interview: A meta-analytic review and study space analysis of the past 25 years. Psychology, Public Policy, and Law. – 2010. – Vol. 16, № 4. – P. 340–372. – DOI: 10.1037/a0020518.

7. Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012 establishing minimum standards on the rights, support and protection of victims of crime, and replacing Council Framework Decision 2001/220/JHA. Official Journal of the European Union. – 2012. – L 315. – P. 57–73.